




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

VIRTUAL MASHHURLIK SINDIROMI VA OILAVIY ROLLARNING DEVALVATSIYASI

Axmedova Surayyo Sunnat qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti, psixologiya yo'nalishi magistranti

Akhmedovasurayyo69@gmail.com

Ilmiy rahbar: G'aybullayev A'zam Ahadovich,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi hamda ularning oilaviy munosabatlar, qadriyatlarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani nazariy va metodologik asoslar bilan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar bilan nosog'lom aloqalar hamda virtual dunyoga qaramlik natijasida yuzaga kelayotgan psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tanishib chiqamiz. Olingan natijalar pedagogik, psixologik va sotsiologik jihatdan tahlil qilinib talim sifatini oshirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar:: Oilaviy rollar, virtual hayot, sotsum, devalvatsiya, qadriyatlar, oila, dunyoqarash, sog'lom fikrlash.

СИНДРОМ ВИРТУАЛЬНОЙ ЗНАМЕНИТОСТИ И ОБЕСЦЕНИВАНИЕ СЕМЕЙНЫХ РОЛЕЙ

Ахмедова Сурайё Суннат кизи,

Бухарский государственный педагогический институт, магистрантка по психологии

Akhmedovasurayyo69@gmail.com

Научный руководитель: Гайбуллаев А'зам Ахадович,

Доктор философии (PhD) по

Аннотация: В данной статье анализируется восприятие людьми изменений, происходящих в современном обществе, и их влияние на семейные отношения и ценности с использованием теоретических и методологических основ. Мы познакомимся с психологическими и социальными изменениями, происходящими в результате нездоровых отношений с социальными сетями и зависимости от виртуального мира. Полученные результаты могут быть проанализированы с педагогической, психологической и социологической точек зрения и послужить методологической основой для повышения качества образования.

Ключевые слова: Семейные роли, виртуальная жизнь, общество, обесценивание, ценности, семья, мировоззрение, здоровое мышление.

VIRTUAL CELEBRITY SYNDROME AND THE DEVALUATION OF FAMILY ROLES

Akhmedova Surayyo Sunnat qizi,

Bukhara State Pedagogical Institute, Master's student in psychology

Akhmedovasurayyo69@gmail.com

Scientific advisor: Gaybullayev A'zam Ahadovich,

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Abstract: This article analyzes people's perceptions of the changes taking place in modern society and their impact on family relationships and values using theoretical and methodological foundations. We consider the psychological and social changes that occur as

a result of unhealthy relationships with social media and addiction to the virtual world. The results obtained are analyzed from a pedagogical, psychological and sociological perspective and serve as a methodological basis for improving the quality of education.

Keywords: Family roles, virtual life, society, devaluation, values, family, worldview, healthy thinking.

Kirish: Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, komil inson bo'lib shakllanishida oila, maktab va mahalla tashkilotlari kabi ijtimoiy institutlar asosiy o'rin egallaydi. Oila jamiyatning eng muhim bo'lagi hisoblanadi shunday ekan oilaning tinchligi, farzandlar tarbiyasi oila az'zolarining ustuvor burchlaridir. Bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, turli saytlar hamda virtual o'yinlarning tasiri kishilar psixologiyasida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday o'zgarishlar shaxslardagi ijtimoiy rollar, dunyo qarashlar, burch va ma'suliyat, yashashdagi motivlar va boshqa jabhalarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa yoshlardagi o'zgarishlar akseliratsiya jarayonining yorqin misolidir. Bunga sabab ijtimoiy tarmoqlarda nazoratsiz hamda tartibsiz qabul qilinayotgan axborotlar oqimdir. Buning natijasida ayrim yoshlarda ulg'ayish mohiyatini anglamaslik, hayotga nisbattan yengil -yelpi qarash holatlari kuzatilmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat axborot almashish va muloqot vositasi, balki insonning dunyoqarashi, qadriyatlar, xulq-atvori va psixologik holatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida virtual makonda tanilish, ko'proq kuzatuvchi (obunachi), layk va izohlar to'plashga intilish kuchayib bormoqda. Natijada shaxsning o'ziga bergan bahosi real yutuqlardan ko'ra virtual e'tirofga bog'lanib qolishi kuzatilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'qullanish va e'tirof insonning o'zini qadrlash hissiga ta'sir qiladi. Virtual makonda olingan ijobiy baholar vaqtinchalik qoniqish hosil qilsa-da, ularga haddan tashqari bog'lanish ruhiy qaramlik, xavotir, o'zini boshqalar bilan taqqoslash va hayotdan qoniqmaslik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda insonning haqiqiy ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy ehtiyojlari ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning qadriyatlarga ta'siri ham dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy jamiyatlarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, oilaparvarlik, kattalarga hurmat va farzand tarbiyasi kabi qadriyatlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, virtual makonda tashqi ko'rinish, mashhurlik, auditoriya soni va ommaviy e'tibor ko'pincha muvaffaqiyat mezoni sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa ayrim hollarda shaxsiy va oilaviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar tizimida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Oila a'zolari o'rtasidagi jonli muloqotning kamayishi, vaqtning katta qismini virtual makonda o'tkazish, oiladagi mas'uliyat va vazifalarga nisbatan e'tiborning susayishi oilaviy rollarning devalvatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Natijada ota-onalik, turmush o'rtoqlik va farzandlik kabi muhim ijtimoiy rollarning mazmuni va ahamiyati zaiflashishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu N asr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin

Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ket-ganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e‘tibor berilgan, shuning uchun biz yuqoridagi buyuk mutafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlari yoritilgan asarlarini tahlil etish orqali talabalarga mazkur muammolarning naqadar dolzarb ekanligini bayon etamiz. [1]

Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan bir-lashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamoloti-da oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-ona va yaqin kishilarning Yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e‘tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar - halollik, poklik, mard-lik, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifat-lardan yuqori qo‘yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bo-laga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z fal-safiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Kunimizda rivojlanish bilan birgalikda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ham professor olimlar tomonidan ham tinimsiztahlil qilib kelinmoqda.

Masalan zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri keng o‘rganilmoqda. Psixolog olimlar insonning boshqalar tomonidan e‘tirof etilish ehtiyoji virtual makonda yangi shakl kasb etganini ta’kidlaydilar.

Xususan, A. Maslov tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida hurmat va e‘tirofga bo‘lgan ehtiyoj insonning asosiy ijtimoiy ehtiyojlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Ijtimoiy tarmoqlar ushbu ehtiyojni qondirishning yangi vositasiga aylangan. [4]

Tadqiqotchi o‘zining ijtimoiy rollar haqidagi nazariyasida inson jamiyatda ma’lum rollarni bajarishini va boshqalarda taassurot qoldirishga intilishini ta’kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa shaxs o‘zining ideal obrazini yaratishga harakat qiladi, bu esa real va virtual identifikatsiya o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida e‘tirof etiladi. Oila a‘zolari tomonidan bajariladigan ota-onalik, turmush o‘rtoqlik va farzandlik rollari jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Biroq raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida oilaviy muloqot shakllari o‘zgarib, ayrim hollarda oilaviy mas’uliyat va majburiyatlarning qadrsizlanishiga olib kelayotgani qayd etilgan.

So‘nggi yillarda virtual mashhurlik fenomenini o‘rgangan tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlardagi layklar, kuzatuvchilar soni va ommaviy e‘tirofning shaxsning o‘zini baholash darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlaganlar. Ularning fikricha, virtual muvaffaqiyatga haddan tashqari intilish shaxsning real hayotdagi munosabatlari, jumladan oilaviy aloqalari sifatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Shuningdek, axborotlashgan jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar tobora tarmoqlashib borayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, raqamli kommunikatsiya imkoniyatlari kengaygani sari an’anaviy ijtimoiy institutlar, jumladan oila oldida yangi muammolar va vazifalar paydo bo‘lmoqda.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, virtual mashhurlikka intilish insonning psixologik holati, qadriyatlar tizimi hamda oilaviy rollarni idrok etishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ushbu jarayonlarning oilaviy rollar devalvatsiyasi bilan bog‘liqligini kompleks tarzda o‘rganish hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda sotsiologiyada yoritilgan nazariy hamda amaliy yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Chunki oilaviy munosabatlarga ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini o'rganish ham psixologik ham sotsiologik jihatdan keng qamrovli hodisadir.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2–3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15–16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12–13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15–16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda 13–14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3–4 yil ustoz ko'rgan shogird 16–17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18–20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. [1]

Xulosa: Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida insonning o'zini namoyon etish usullari, ijtimoiy mavqeni baholash mezonlari hamda oilaviy munosabatlarni tashkil etish shakllarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Virtual makonda ommaviy e'tirofga erishish imkoniyatlarining kengayishi shaxsning kundalik faoliyati, qadriyatlar tizimi va hayotiy ustuvorliklariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar ayrim hollarda real ijtimoiy munosabatlar va oilaviy majburiyatlarga bo'lgan e'tiborning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mavzu yuzasidan o'rganilgan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, virtual faollikning ortishi har doim ham salbiy hodisa emas. U muloqot doirasini kengaytirish, axborot almashish va shaxsiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq virtual muvaffaqiyatning asosiy maqsadga aylanishi insonning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va oiladagi o'zaro munosabatlariga ma'lum darajada ta'sir etishi mumkin. Ayniqsa, oiladagi an'anaviy vazifa va mas'uliyatlarning ikkinchi darajaga tushib qolishi oilaviy muhitning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Tadqiqot natijalari virtual mashhurlikka intilish va oilaviy rollarning qadrsizlanishi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini anglash imkonini beradi. Shu bois zamonaviy jamiyat sharoitida raqamli madaniyatdan oqilona foydalanish, yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina virtual va real hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali shaxsning barkamol rivojlanishi va oilaning ijtimoiy institut sifatidagi mavqeini mustahkamlash mumkin. Mazkur masalaning psixologik, sotsiologik va pedagogik jihatlarini chuqur o'rganish esa kelgusidagi

ilmiy izlanishlar uchun muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G'.B.Shoumarov-Oila psixologiyasi Toshkent 2010
2. .Karimova, V. “Oila psixologiyasi asoslari.” – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Xolbekov, A. “Shaxs va jamiyat sotsiologiyasi.” – Toshkent: Universitet, 2021
4. : Motivation and Personality — Maslow A.H. Motivation and Personality. New York:
5. Social Psychology bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar va ijtimoiy tarmoqlarning shaxs rivojlanishiga ta’siri haqidagi ilmiy maqolalar.

[18.06.2026 11:52] Surayyo Axmedova : Motivation and Personality — Maslow A.H. Motivation and Personality. New York: Harper

[18.06.2026 11:53] Surayyo Axmedova : Social Psychology bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar va ijtimoiy tarmoqlarning shaxs rivojlanishiga ta’siri haqidagi ilmiy maqolalar.

RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Berdiyeva Umida G'oyibberdiyevna</i>	
VIRTUAL MASHHURLIK SINDIROMI VA OILAVIY ROLLARNING DEVALVATSIYASI <i>Axmedova Surayyo Sunnat qizi</i>	94
O'SMIRLARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA VA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Xudoyberdiyeva Yulduz Sharif qizi, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich</i>	99
YUQORI SINIF CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA JISMONIY SIFATLARNING O'RNI <i>Nurulloev Laziz Latipovich</i>	108
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHA, TARKIBIY KOMPONENTLAR VA MEZONLAR <i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	116
YOSHLARNI GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Raximova Aziza Kamolovna, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich,</i>	122
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH <i>Saidova Mahbuba Ayubovna</i>	131
MAKTAB O'QUVCHILARIDA STRESS VA DEPRESSIYA HOLATLARINI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI <i>Baxshullayeva Nilufar Olim qiz</i>	139
НАЧИМОСТЬ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ <i>Хаитова Нодира Бафоевна</i>	144
“INSON –GENERATIV SUN'IIY INTELLEKT” TIZIMIDAGI MULOQOTNING LINGVISTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI (RUS TILIDAGI KO'RSATMALARGA ASOSLANGAN) <i>Atamurodova Sitara Jalilovna</i>	153
BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMIDA ARIFMETIK AMALLARNI O'QITISHDA METOLOGIK MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Ikromova Sevinch Elniyoz qizi</i>	161
JADID MAKTABLARINING PEDAGOGIK KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA TEXNOLOGIYALARI <i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	167
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR <i>Boboyev A'lonirzo To'lamirzayevich</i>	174
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNING META-PREDMET KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI <i>Norkulova Dilorom Oybekovna</i>	181
Filologiya fanlari	
BUXOROLIK SHOIRALAR IJODIDA DENDRAR OBRAZLARINING BADIY-ESTETIK TALQINLARI <i>Rustamova Gavhar Bahron qizi</i>	191